ZAMONAVIY TA‘LIMDA CHET TILINI O‘QITISHDA METODIKANING O‘RNI

Elmurodov Shohrux Alijon o‘g‘li
Ishtixon tumani 2-son Politexnikumi
fransuz tili fani o’qituvchisi (yetakchi)
Elmurodovshohrux580@gmail.com

Qabul qilindi: 22.10.2025
Ko‘rib chiqildi: 23.10.2025
Tasdiqlandi: 24.10.2025

Kalit so’zlar:
metodika, chet tili, zamonaviy ta’lim, kommunikativ yondashuv, innovatsion texnologiya, CLIL, interaktiv ta’lim.

Keywords:
methodology, foreign language, modern education, communicative approach, innovative technology, CLIL, interactive education.

Annotatsiya: Tezisda zamonaviy ta’lim jarayonida chet tillarini o‘qitishning metodik asoslari, innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari hamda o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdagi metodikaning o‘rni tahlil qilinadi.

Abstract: The thesis analyzes the methodological foundations of teaching foreign languages in the modern educational process, the possibilities of using innovative technologies, and the role of methodology in the formation of communicative competence in students.

Til o‘rganish kishilik jamiyatida bag‘oyat muhim sohalardan biri hisoblanadi. Muloqot vositasi bo‘lmish tilni tabiiy muhitda ya‘ni oilada, jamoatchilik orasida yoki uyushgan holda amaliy egallash mumkin. Til hodisalariga oid bilimlar esa nazariy jihatdan o‘rgatiladi. Xalqaro munosabatlar avj olgan zamonamizda tillarni bilish, ayniqsa ko‘p tillilik ulkan ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda tahsil oladigan o‘quvchi va talabalar o‘z ona tilidan tashqari boshqa chet tillarni ham qiziqish bilan o‘rganadilar. Ona tili tafakkur shakllanishida alohida xizmat o‘taydigan birinchi til hisoblanadi. Chet til haqida so‘z yuritilganda, unga boshqa bir millat haqida malumot beruvchi uning ichiga kiruvchi, madaniyatini anglatuvchi til sifatida qaraladi.

Bugungi kunda globallashuv, raqamlashtirish va xalqaro hamkorlikning kuchayishi natijasida chet tillarni bilish har bir mutaxassis uchun zaruriy

ehtiyojga aylandi. O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi yillarda chet tillarini o‘qitish tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan qator hujjatlar qabul qilinmoqda. Jumladan, Prezidentning 2021-yil 19-maydagi PQ–5117-son qarorida chet tillarini o‘qitish sifatini oshirish, o‘qituvchilar malakasini takomillashtirish va zamonaviy metodikalarni joriy etish dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Mazkur jarayonning markazida metodika — ya’ni tilni o‘qitishning ilmiy-nazariy va amaliy asoslarini o‘rganuvchi fan turadi. Metodika nafaqat o‘qituvchining faoliyatini yo‘naltiradi, balki o‘quvchi shaxsining rivojlanishiga, mustaqil fikrlash, muloqot va ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Chet til – bu xorijiy mamlakat tilidir. Respublikamizda G‘arbiy Yevropa (ingliz, ispan, nemis, faransuz) tillari va Sharq (arab, turk, fors, xitoy, hind) tillari o‘qitilib kelinmoqda. Bu tillar ta‘lim muassalarining o‘quv rejalariga kiritilgan. Bu tillarni o‘qitish jarayoni turlicha kechadi. Ona tili va ikkinchi til tabiiy vaziyatda, chet til esa sun‘iy muhitda o‘rgatiladi. Chet tildagi muloqot, asosan, darsda muallim rahbarligida kechadi. Chet tilni o‘rganish va o‘rgatish muayyan jihatlari bilan keskin farq qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, tegishli chet til o‘qitish texnologiyasini qo‘llashni taqozo etadi. Chet tili muallimi metodika fani yutuqlarini puxta o‘zlashtirish orqali o‘quvchi-talabaning to‘plagan til tajribasi me‘yorini aniq bilishga va uni yanada takomillashtrishga erishadi. Chet tillarni samarali o‘rgatish uning metodikasini bilishni talab qiladi. Chet tillarni o‘rganish va o‘rgatish ko‘p jihatdan chet til o‘qitsih metodikasi masalalarini nazariy tomondan ishlab chiqilishiga va nazariyaning amalda ijodiy qo‘llanilishiga bog‘liq hodisa hisoblanadi.

Zamonaviy metodika o‘qitishning yagona yo‘lini emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi yondashuvlarni ilgari suradi. Richards va Rodgers ta’kidlaganidek, samarali chet tili o‘qitish kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga qaratilishi lozim. Ya’ni o‘quvchi grammatikani bilishdan tashqari, tilni haqiqiy hayotiy vaziyatlarda erkin qo‘llay olishi kerak. Shu bois kommunikativ yondashuv bugungi kunda eng ko‘p qo‘llaniladigan metodlardan biridir.

Brownning fikricha, o‘quvchilarda ijtimoiy, madaniy va nutqiy ko‘nikmalarni uyg‘un shakllantirish til o‘rganishning asosiy maqsadi bo‘lishi lozim. Shu jihatdan o‘qituvchi dars jarayonida o‘quvchini faol ishtirokchi sifatida ko‘rishi,

ularni muammoli vaziyatlarga jalb etishi, juftlik va guruh ishlari orqali kommunikatsiyani faollashtirishi muhim.

Hozirgi davrda CLIL (Content and Language Integrated Learning) metodikasi ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Bu yondashuvda til boshqa fanlar bilan integratsiya qilinadi — masalan, tarix yoki biologiya darslari chet tilida o‘tiladi. Bu usul o‘quvchilarning fanga qiziqishini oshiradi, so‘z boyligini kengaytiradi va tilni tabiiy muhitda qo‘llash imkonini yaratadi.

Zamonaviy ta’limda metodikaning o‘rni katta va bu AKT — axborot-kommunikatsion texnologiyalarni qo‘llash bilan chambarchas bog‘liq. Onlayn platformalar, interaktiv o‘quv dasturlari, audio va video materiallar o‘quvchilarga mustaqil ishlash, tinglab tushunish va talaffuzni rivojlantirish imkonini beradi. Karimova qayd etganidek, o‘qituvchi metodik jihatdan to‘g‘ri yo‘naltirgan taqdirda, texnologiyalar dars samaradorligini sezilarli oshiradi.

Metodik yondashuvlar o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligini, psixologik madaniyatini va ijodkorligini talab etadi. Chunki metodika — bu faqat nazariya emas, balki ijodiy amaliyot hamdir. O‘qituvchi darsni shunchaki o‘tkazuvchi emas, balki uni tashkil etuvchi, o‘quvchini motivatsiyalovchi, tahlil qiluvchi va baholovchi shaxs hisoblanadi.

Xulosa. Yurtimizda chet tilini o‘rgatish va o‘rganish yildan yilga rivojlanib borar ekan bu ko’p qirrali ta’limot bo’lib, bu jarayonda inson murakkab psixologik o’zgarishlarni boshdan kechiradi. Chet tili o’rgatishning turli metod va texnologiyalaridan foydalaniladi. Bu esa xorijiy tilni o’rgatish uning metodikasiga oid bilimlarga ega bo’lishni taqozo etadi. Metodika xorijiy til o’rgatish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, zamonaviy ta’limda chet tilini o‘qitish metodikasi o‘quv jarayonining markazida turadi. U o‘quvchilarda nafaqat lingvistik bilimlarni, balki madaniyatlararo muloqot, ijodkorlik, mustaqil fikrlash va o‘z-o‘zini rivojlantirish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Innovatsion metodlarni o‘qitish jarayoniga tatbiq etish, AKT vositalaridan samarali foydalanish va o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini muntazam oshirib borish chet tilini o‘qitish sifatini yangi bosqichga olib chiqadi. Shu bois metodika zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas qismi va ta’lim samaradorligini belgilovchi eng muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova, M. (2022). Chet tillarni o‘qitish metodikasi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.

2. Brown, H. D. (2015). Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy. Pearson Education.

3. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–5117-son qarori, 2021-yil 19-may.